



LIRIK QAHRAMONNING “YO‘QOLGAN MEN” FENOMENI

Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o‘g‘li,

Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti, f.f.f.d (PhD)

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1762>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 16-iyun 2026-yil

Tasdiqlandi: 18-iyun 2026-yil

Jurnal soni: 18-C

Maqola raqami: 38

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

identitet, identitet inqirozi, “yo‘qolgan men”, lirik qahramon, lirik subyekt, poetik “men”, begonalashuv, xotira, diskurs, o‘zlik, istiqloq davri she‘riyati, poetik tafakkur

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi ijtimoiy, madaniy hamda ma‘naviy o‘zgarishlar sharoitida lirik qahramon identitetining inqirozga yuz tutishi va “yo‘qolgan men” fenomenining badiiy-estetik tabiati tahlil qilinadi. Identitet inqirozining dastlab psixologiya, sotsiologiya va falsafa doirasida shakllangan nazariy tushuncha sifatidagi mazmuni ochib berilib, uning zamonaviy adabiyotshunoslikka ko‘chishi, xususan, lirik subyektning anglashdagi metodologik ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda E.Erikson, S.Hall, R.Bart, M.Fuko, M.Baxtin va P.Rikyor qarashlariga tayanilib, badiiy matndagi “men”ning barqaror va yaxlit mohiyat emas, balki til, xotira, madaniyat, tarix, diskurs va ijtimoiy rollar ta’sirida shakllanuvchi murakkab poetik subyekt ekanligi asoslanadi. “Yo‘qolgan men” tushunchasi shaxsning butunlay yo‘qolishi emas, balki avvalgi o‘zlik mezonlari bilan yangi hayot tajribasi o‘rtasidagi uzilish, ichki yaxlitlikning buzilishi va yangi identitetni izlash jarayoni sifatida talqin etiladi. Maqolada identitet inqirozining she‘riyatda yolg‘izlik, begonalashuv, ichki dialog, o‘z-o‘ziga savol berish, xotira, yo‘l, uy, shahar, ko‘zgu, soya, tun va sukut kabi obraz hamda motivlar orqali namoyon bo‘lishi ko‘rsatiladi. Shuningdek, istiqloq davri o‘zbek she‘riyatida milliy o‘zlikni qayta anglash, tarixiy xotirani tiklash, globallashuv va yangi ijtimoiy muhit ta’sirida lirik “men”ning o‘zini izlash jarayonlari kuchaygani ta’kidlanadi. Natijada “yo‘qolgan men” fenomeni zamonaviy o‘zbek lirikasida shaxs va davr o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni, ruhiy parokandalikni hamda o‘zlikni qayta qurish ehtiyojini ifodalovchi muhim poetik hodisa sifatida baholanadi. Tahlil davomida lirik qahramon va real muallif o‘rtasidagi farq ham nazariy jihatdan aniqlashtirilib, poetik “men”ning matn ichida yaratiladigan estetik konstruksiya ekaniga alohida e’tibor qaratiladi. Shu asosda identitet inqirozining mavzu bilangina cheklanmay, obrazlar tizimi, nutq ohangi, kompozitsiya va ramziy qatlamda ham namoyon bo‘lishi asosiy muhim ilmiy xulosa sifatida ilgari suriladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 16 June 2026

Approved: 18 June 2026

Volume: 18-C

Paper number: 38

KEYWORDS

identity, identity crisis, "lost self," lyrical protagonist, lyrical subject, poetic "I," alienation, memory, discourse, selfhood, poetry of the independence era, poetic thought

ANNOTATION

The article analyzes the crisis of the lyrical protagonist's identity and the artistic-aesthetic nature of the "lost self" phenomenon amidst the social, cultural, and spiritual transformations of the late 20th and early 21st centuries. It elucidates the concept of identity crisis – originally formulated within psychology, sociology, and philosophy – and highlights its transition into contemporary literary studies, particularly its methodological significance for understanding the lyrical subject. Drawing on the perspectives of E.Erikson, S.Hall, R.Barthes, M.Foucault, M.Bakhtin, and P.Ricoeur, the study argues that the "self" in a literary text is not a stable, integral essence but a complex poetic subject shaped by language, memory, culture, history, discourse, and social roles. The concept of the "lost self" is interpreted not as the total disappearance of the individual, but as a rupture between established criteria of selfhood and new life experiences, a fragmentation of inner integrity, and a process of seeking a new identity. The article demonstrates how the identity crisis manifests in poetry through images and motifs such as loneliness, alienation, internal dialogue, self-questioning, memory, the road, home, the city, the mirror, the shadow, night, and silence. It is also noted that in Uzbek poetry of the independence era, processes such as the rediscovery of national identity, the restoration of historical memory, and the lyrical "I's" search for self—driven by globalization and a new social environment—have intensified. Consequently, the phenomenon of the "lost self" in contemporary Uzbek lyric poetry is regarded as a significant poetic motif that expresses the complex relationship between the individual and the era, spiritual fragmentation, and the need for self-reconstruction. The analysis theoretically clarifies the distinction between the lyrical protagonist and the actual author, emphasizing that the poetic "I" is an aesthetic construct created within the text. On this basis, a key scholarly conclusion is advanced: the identity crisis manifests not only in the subject matter but also in the system of imagery, speech tone, composition, and symbolic layers.

Kirish. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida hayotning deyarli barcha sohalarida inson, jamiyat va madaniyat haqidagi ilmiy qarashlarda identitet masalasi tobora markaziy muammolardan biriga aylana bordi. Bu holat bevosita zamonaviy dunyoda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma‘naviy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, globallashuv jarayonlari, migratsiya, urbanizatsiya, axborot oqimining keskin kuchayib borishi, an‘anaviy qadriyatlar tizimining evrilishlarga yuz tutishi, milliy va madaniy chegaralarning nisbiylashuvi insonning o‘zini anglash tarziga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Natijada shaxs endi o‘zini faqat barqaror ijtimoiy maqom, milliy mansublik yoki an‘anaviy qadriyatlar doirasidagina emas, turli madaniy, ijtimoiy va ruhiy ta’sirlar kesishmasida idrok eta boshladi. Ana shu jarayonda identitet inqirozi zamonaviy insonning eng muhim ruhiy-ma‘naviy holatlaridan biri sifatida yuzaga chiqdi.

Adabiyotlar tahlili. Identitet inqirozi tushunchasi dastlab psixologiya, aniqrog‘i, psixosotsial rivojlanish nazariyasi doirasida shakllangan bo‘lib, shaxsning o‘zini anglashdagi beqarorlik, ijtimoiy rollar orasidagi nomuvofiqlik, qadriyatlar tanlovi va hayotiy yo‘nalishni

belgilashdagi ichki ziddiyatlarni izohlash uchun qo‘llanilgan. Bu atama birinchi bo‘lib amerikalik olim E.Erikson tomonidan muomalaga kiritilgan. Uning ta’rifiga ko‘ra, identitet inqirozi “rivojlanish muqarrar tarzda u yoki bu tomonga yo‘nalishi kerak bo‘lgan zarur burilish nuqtasi, hal qiluvchi lahza bo‘lib, unda o‘shish, tiklanish va yanada differentsiatsiya resurslari safarbar etiladi” [5, 7-b.]. Olim nazariyasida identitet inqirozi shaxsning psixosotsial rivojlanishining beshinchi bosqichi bo‘lib, asosan o‘smirlik davrida yuzaga keladi va shaxs jismoniy o‘shish, jinsiy voyaga yetish hamda o‘zi va boshqalar haqidagi tasavvurlarni bir butunlikka keltirish vazifasi bilan yuzma-yuz keladi. Bu o‘rinda “inqiroz” tushunchasini halokat emas, burilish yoki qaror qabul qilish nuqtasi, ya’ni tabiiy va zarur rivojlanish jarayoni sifatida talqin etilishini ko‘rish mumkin. Oxirgi ilmiy tadqiqotlarda esa mazkur atama kengroq ma’noda ham qo‘llanilib, kasbiy yoki madaniy o‘zgarishlar tufayli yuzaga keladigan har qanday o‘z-o‘zini qayta baholash bosqichini ham “identitet inqirozi” deya atash odat tusiga kirgan.

So‘nggi yillardagi sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, “sotsiologik nuqtayi nazardan identitet inqirozi shaxsning o‘z-o‘zini anglashdagi tub

noaniqlik bo'lib, ko'pincha tashqi ijtimoiy bosim va madaniy kutilmalar tufayli kuchaya boradi. U shaxsiy avtonomiya bilan jamiyat talablari o'rtasidagi doimiy ziddiyatni aks ettiradi" [7, 82-b.]. Bundan anglashiladiki, identitet inqirozi shaxsning o'z-o'zini tasavvur qilishi bilan jamiyat yoki ijtimoiy institutlar tomonidan qo'yilgan talablar o'rtasidagi uzilish yuzaga kelganda paydo bo'ladi. Globallashuv, madaniy diffuziya va texnologik o'zgarishlarni esa bu jarayonni kuchaytiruvchi omillar sifatida ko'rsatish mumkin.

Metodologiya. Identitet inqirozi dastlab psixologiya, sotsiologiya va falsafa doirasida shaxsning o'zini anglab yetishidagi beqarorlik, ijtimoiy rollar orasidagi nomuvofiqlik, shaxsning qadriyatlar tanlovi qarshisida qolishi va o'zlik haqidagi tasavvurlarining izdan chiqishi sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyingi davrlarda bu tushuncha adabiyotshunoslik yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlar uchun ham muhim nazariy mezoniga aylandi. Chunki badiiy adabiyot insonning ichki dunyosi, o'zini anglashi, jamiyat bilan munosabati, tarixiy xotirasi hamda ruhiy ziddiyatlarni estetik shaklda ifodalovchi maydon sanaladi. Shaxsning "men kimman?", "qayerga mansubman?", "hayotim davomida qaysi qadriyatlarga tayanaman?", "jamiyatdagi o'rnim qanday?" singari savollari adabiyot matnida shunchaki psixologik holat sifatida emas, badiiy obraz, syujet, lirik nutq, ramz, metafora va kompozitsion qurilish vositasida namoyon bo'ladi. Ayni shu sababdan identitet inqirozining adabiyotshunoslikka ko'chishini ushbu tushunchaning ruhiy-ijtimoiy hodisadan badiiy-estetik hodisaga aylanishi bilan izohlash mumkin.

Natijalar. Adabiyotshunoslikda identitet inqirozi, avvalo, badiiy qahramon yoki lirik subyektning ichki yaxlitligini yo'qotishi, o'zini bir butun va barqaror "men" sifatida his qila olmasligi bilan chambarchas bog'liq holatda o'rganiladi. Bunday qahramon tashqi olam bilan ichki ehtiyojlari, ijtimoiy roli bilan ruhiy-mohiyati, milliy-madaniy mansubligi bilan shaxsiy erkinligi, xotirasi bilan ayni davrdagi hayoti o'rtasidagi ziddiyatlar orasida qoladi. Nasriy asarlarda bunday holat syujet, konflikt, ichki monolog, obrazning ong oqimi, qahramonning jamiyat bilan to'qnashuvi vositasida berilsa, she'riyatda u lirik "men"ning savolga aylanishi, o'z-o'ziga murojaati, yolg'izlik, begonalashuv, xotira, yo'l, soya, tun, shahar singari obrazlar orqali ifoda etiladi.

Identitet inqirozining adabiyotga ko'chishida modernizm va postmodernizm tajribasi alohida ahamiyatga ega. Modernistik adabiyotda inson ko'pincha parchalangan dunyo ichida o'z o'rnini izlayotgan, an'anaviy qadriyatlar yemirilgan sharoitda ruhiy tayanchini yo'qotgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu yo'nalishdagi asarlarda qahramonning ichki olami tashqi voqealardan ko'ra muhimroq bo'lib boradi. Postmodernistik tafakkurda esa identitet yanada beqaror, ko'p qatlamli, intertekstual va o'zgaruvchan hodisa sifatida talqin qilinadi. Ya'ni shaxs tayyor mohiyat emas, turli nutqlar, madaniy belgilar, tarixiy xotiralar va ijtimoiy rollar mushtarakligida shakllanadigan subyekt sifatida tushuniladi. Bu holat adabiyotshunoslikda badiiy qahramon va lirik "men"ni faqat biografik yoki psixologik nuqtayi nazaridan emas, madaniy tarixiy va diskursiv maydon ichida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu o'rinda identitet inqirozining murakkab jarayon ekanligini ta'kidlab, uning badiiy asarda aks etish shakllarini, muallif va lirik qahramon munosabatini nazariy asoslash joizdir.

Mashhur olim Bendelning fikricha, o'tgan asrning 80-90-yillarida identitet muammosiga individual darajadan tashqari, jamoaviy identitet shakllari nuqtayi nazaridan ham qarala boshlandi [10, 133-b.]. Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda identitet inqirozi adabiy mavzu sifatida shaxsning o'z haqiqiy "men"i bilan jamiyat kutgan rol o'rtasidagi ziddiyatni yengishga urinishi sifatida tavsiflanadi. Insonning o'zi mansub bo'lgan jamiyat qoidalarini bilan murosqa qila olmasligini, jamiyat orasida o'z o'rnini qidirishi, ana shu qidirish jarayonida turfa savollarga duch kelishini, ayrim hollarda yilarga yechim topa olmaganidagi beqaror holatini qadimiy dramalardan tortib zamonaviy romanlarga uchratish mumkin. Shu jihatdan identitet inqirozini adabiyotshunoslik kesimida alohida tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Postkolonial adabiyotshunoslikda S.Hall identitetni "ikki madaniy nutq o'rtasidagi notinch, hal etilmagan makon" [8, 237-b.] sifatida tushuntiradi. Edvard Said qarashlarga ko'ra esa mustamlaka davridan keyingi identitet inqirozi mimikriya (bosqinchi madaniyatini taqlid qilish), begonalashuv va bosqinchi mafkurasiga qarshilik ko'rsatish kabi shakllarda namoyon bo'lishi aytiladi. Aynan E.Saidning mazkur qarashlari tadqiqot obyekti sifatida tanlangan o'zbek she'riyatining ma'lum davrini yoritish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi [6, 32-b.]. Ma'lumki, Sovet Ittifoqining yemirilishi ortidan mustaqillikka erishgan xalqlar adabiyotida, xususan, o'zbek she'riyatida yangidan yangi mavzular paydo bo'ldi. Siyosiy senzura qutulgan o'zbek she'riyatida shoirmning o'z ichki kechinmalarini, ayni vaqtdagi asl kayfiyatini ifodalash imkoniyati paydo bo'ldi va qahramon identitetining tanlovlar qarshisida inqirozga yuz tutish holatlari turli ko'rinishlarda aks eta boshladi.

Identitet inqirozining adabiyotshunoslikdagi talqinida XX asr ikkinchi yarmida shakllangan poststrukturalistik nazariy qarashlar, xususan, R.Bart va M.Fuko tomonidan ilgari surilgan mualliflik subyekti haqidagi konsepsiyalar muhim o'rin tutadi. Mazkur nazariyalar badiiy matndagi "men"ni real muallifning to'g'ridan-to'g'ri tarjimai holi ifodasi sifatida emas, til, matn, diskurs va madaniy kodlar mushtarakligida yuzaga keladigan estetik konstruksiya sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu jihatdan ushbu olimlarning qarashlari istiqbol davri o'zbek she'riyatida lirik qahramonning "yo'qolgan men" fenomenini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'la oladi.

Rolan Bart "Muallifning o'limi" nomli mashhur maqolasida badiiy matn ma'nosini faqat muallif shaxsiyati, uning niyati yoki biografik tajribasi bilan izohlashga qarshi chiqadi [9, 142-b.]. Bart nazarida matn yagona muallif ovozinining yakuniy hukmronligi ostida emas, balki turli madaniy kodlar, avvalgi matnlar, iqtiboslar, til birliklari va o'quvchi talqini orqali shakllanadigan ko'p qatlamli hodisadir. Unga ko'ra, yozuv jarayonida muallifning mutlaq hokimiyati zaiflashadi, matn esa turli ma'nolar uchrashadigan maydonga aylanadi. Bu yondashuv lirik "men"ni ham muallifning bevosita "men"i bilan tenglashtirmaslik zarurligini ko'rsatadi. She'rdagi "men" muallifning real shaxsi emas, balki matn ichida yaratilgan nutqiy-estetik subyekt, ya'ni poetik ong shaklidir.

Bart qarashlari identitet inqirozini talqin qilishda shuni ko'rsatadiki, badiiy matndagi "men" avvaldan tayyor va barqaror mohiyat emas. U til, obraz, ramz, xotira, intertekst va o'quvchi talqini orqali doimiy ravishda qayta quriladi. Demak, she'rdagi lirik qahramonning parokandaligi, o'zini yo'qotishi, o'ziga savol berishi yoki o'zidan begonalashuvi faqat shoirmning shaxsiy ruhiy holati sifatida emas, balki matn ichida yuzaga kelgan estetik hodisa sifatida tahlil qilinishi lozim. Shu ma'noda "yo'qolgan men" fenomeni muallifning hayotiy iztirobi bilangina cheklanmaydi; u zamonaviy poetik tafakkurda subyektning barqaror markaz sifatida emas, til va matn ichida parchalanib, qayta shakllanadigan hodisa sifatida namoyon bo'lshidir.

M. Fuko "Muallif nima?" maqolasida muallifni oddiy biografik shaxs sifatida emas, balki diskurs ichida muayyan tartibga soluvchi funksiya sifatida tushuntiradi. Uning "muallif funksiyasi" haqidagi qarashi adabiy matnni faqat yozuvchi shaxsiyati bilan emas, balki uni yuzaga keltirgan madaniy, tarixiy, institutsional va diskursiv sharoitlar bilan bog'lab tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi [10, 113-b.]. Fuko uchun muallif nomi matnni tartibga soladi, uni muayyan madaniy maydonga joylashtiradi, o'quvchi idrokini yo'naltiradi va matnga ijtimoiy-ma'naviy maqom beradi. Binobarin, lirik "men" ham faqat individual kechinmaning ifodasi emas, balki muayyan davr, madaniyat, til, mafkura va estetik tizim bilan bog'liq diskursiv hodisadir. Fuko qarashlarini identitet inqirozi masalasiga tatbiq etganda, lirik qahramonning "yo'qolgan men" holati shaxsiy ruhiy parokandalikdan ko'ra kengroq ma'noga ega bo'ladi. Bunday "men" muayyan tarixiy davrda shakllangan madaniy nutqlar, ijtimoiy rollar, milliy xotira, modern hayot, mafkuraviy o'zgarishlar va shaxsiy tajriba o'rtasidagi ziddiyatlar kesishmasida yuzaga keladi. Demak, she'rdagi identitet inqirozi muallifning individual kayfiyati emas, balki davr diskursida inson haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi, shaxsning jamiyat va madaniyatdagi o'rnini qayta belgilash ehtiyoji bilan bog'liq badiiy-estetik hodisadir.

Bart va Fuko nazariyalarining umumiy jihati shundaki, ular badiiy matndagi subyektni yagona, yopiq va barqaror markaz sifatida emas, balki til, matn, madaniyat va diskurslar orqali shakllanadigan murakkab hodisa sifatida ko'radilar.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyotshunoslikda "muallif", "qahramon", "subyekt", "men", "boshqa", "xotira", "makon", "diskurs" singari tushunchalar qayta talqin qilina boshladi. Xususan, R.Bart va M.Fuko tadqiqotlarida matn ma'nosini faqat muallif shaxsiyati bilan izohlash yetarli emasligi ko'rsatildi. Bu esa lirik "men"ni ham real muallifning oddiy tarjimai holi ifodasi sifatida emas, balki matn ichida yaratiladigan badiiy-estetik subyekt sifatida o'rganishga yo'l ochdi. Demak, she'rdagi "men"ning iztirobi, ikkilanishi, o'zini yo'qotishi yoki o'zini izlash holati muallifning shaxsiy ruhiy holati bilangina cheklanmaydi; u davr, madaniyat, jamiyat, til va poetik tafakkurda yuz berayotgan o'zgarishlarning badiiy shakliga aylanadi. M.Baxtinning dialogizm nazariyasi ham identitet inqirozini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tushuntirishda muhimdir. Baxtin inson ongini yakka, yopiq va o'z-o'ziga yetarli hodisa sifatida emas, balki doimo boshqa ovozlarga, baholar va nutqlar bilan munosabatda shakllanadigan jarayon sifatida ko'radi. Shu jihatdan badiiy matndagi "men" ham mutlaq yakka ovoz emas; u jamiyat, tarix, madaniyat, xotira, e'tiqod va "boshqa"ning nigohi bilan muloqotda shakllanadi. Identitet inqirozi esa ana shu turli ovozlarga o'rtasidagi muvozanat buzilganda yuzaga chiqadi.

Lirik qahramon bir tomondan o'z ichki ovozi eshitishga intiladi, ikkinchi tomondan jamiyat, tarix, ana yoki zamon unga boshqa talablarni qo'yadi. Natijada lirik matnda ichki dialog, o'z-o'ziga savol

berish, ikkilanish, qarama-qarshi ruhiy pozitsiyalar to'qnashuvi yuzaga keladi. P.Rikyoming narrativ identitet haqidagi qarashlari esa identitet inqirozining vaqt va xotira bilan bog'liq jihatini yoritishga imkon beradi. Rikyom talqinida shaxs o'zligini o'tmish, bugun va kelajakni ma'lum ma'no tizimiga joylashtirish orqali anglaydi [7, 98-b.]. Agar inson o'z hayot tajribasini yaxlit hikoya sifatida tushuna olmasa, uning identitetida uzilish yuz beradi. Adabiy matnda bu uzilish xotira parchalari, yo'qotilgan bolalik, qaytib bo'lmaydigan uy, yo'l, Vatan, ona, tarixiy xotira yoki unutilgan qadriyatlar orqali ifodalanadi. She'riyatda bunday holat voqeaaviy bayondan ko'ra kuchliroq ruhiy kechinma, obraz va ramzlar orqali beriladi. Shu ma'noda xotira identitetni tiklovchi kuch bo'lishi bilan birga, uning inqirozini chuqurlashtiruvchi omil ham bo'lishi mumkin.

Identitet inqirozining adabiyotshunoslikka ko'chishi lirik subyekt tushunchasining ham yangicha talqin qilinishiga olib keldi. An'anaviy yondashuvda lirik qahramon ko'pincha muallif kechinmalarining ifodachisi sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy adabiyotshunoslikda u matn ichida quriladigan murakkab poetik ong sifatida qaraladi. Bu poetik ong doimo barqaror emas; u bo'linadi, izlanadi, o'zini inkor qiladi, o'ziga qaytadi, boshqalar bilan to'qnashadi. Shuning uchun identitet inqirozini lirik subyektning badiiy konstruksiyasi bilan bog'lash zarur. She'rdagi "men"ning iztirobi, yolg'izligi yoki begonalashuvi shunchaki hissiy holat emas, balki badiiy matnning ichki tuzilishini belgilovchi estetik tamoyil sifatida ko'riladi.

Adabiyotda identitet inqirozining yana bir muhim ko'rinishi begonalashuvdir. Begonalashuv shaxsning jamiyatdan, muhitdan, yaqinlaridan, tarixdan, madaniyatdan yoki o'z ichki mohiyatidan uzoqlashuvi sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy she'riyatda bu holat ko'pincha "odamlar orasidagi yolg'izlik", "begona shahar", "sukut", "ichki bo'shliq", "soya", "oyna", "yo'qolgan ovoz" kabi poetik belgilar orqali ifodalanadi. Bunday obrazlar lirik qahramonning tashqi dunyo bilan aloqasi susayganini, uning ichki "men"i ijtimoiy rollar ichida erib ketayotganini yoki o'zini topish uchun avval o'zidan uzoqlashayotganini ko'rsatadi. Istiqloq davri o'zbek she'riyatida identitet inqirozining adabiy-estetik talqini alohida ahamiyatga ega. Chunki mustaqillikdan keyingi davrda milliy o'zlikni tiklash, tarixiy xotirani qayta baholash, Vatan, til, din, madaniyat va erkinlik tushunchalarini yangicha anglash jarayoni bilan birga, yangi ijtimoiy muhit, bozor munosabatlari, globallashtirish, urbanizatsiya va axborot makonining kengayishi ham lirik qahramon ruhiyatiga ta'sir ko'rsatdi. Natijada she'riyatda bir tomondan milliy "biz"ni tiklashga intilish kuchaysa, ikkinchi tomondan shaxsiy "men"ning yolg'izligi, ichki ikkilanishi, jamiyat bilan ziddiyati, zamon bilan kelisha olmasligi kabi holatlar ham kuchaydi. Shu bois istiqloq davri lirikasida identitet inqirozi milliy uyg'onishga zid hodisa emas, balki yangi tarixiy-madaniy sharoitda shaxsning o'z o'rnini qayta belgilash jarayonidir.

Muhokama. Adabiyotshunoslik uchun muhim jihat shundaki, identitet inqirozi badiiy matnda faqat mavzu sifatida emas, balki poetik shakl sifatida ham namoyon bo'ladi. U she'ming obrazlar tizimida, lirik nutq ohangida, savollarning ko'pligida, kompozitsion parokandalikda, intertekstual ishoralarda, makon va xotira motivlarida yuzaga chiqadi. Masalan, "yo'l" obrazi ko'pincha o'zlikni izlashni, "uy" yo'qotilgan yaxlitlikni, "ko'zgu" o'ziga qarash va o'zini tanimaslikni, "shahar" begonalashuvni, "tun" ichki qorong'ilikni, "sukut" esa aytilmagan ruhiy og'riqni anglatadi. Shu tariqa identitet inqirozi she'riyatda mavhum nazariy tushuncha bo'lib qolmay, konkret poetik obrazlar orqali estetik mavjudlik kasb etadi. Demak, identitet inqirozining adabiyotshunoslikka ko'chishi bu tushunchaning inson ruhiyatini izohlovchi psixologik atamadan badiiy matn tahlil qilishga xizmat qiluvchi nazariy-estetik mezonga aylanishidir. Adabiy matnda identitet inqirozi lirik qahramonning o'zini yo'qotishi, o'zini izlashga majbur bo'lishi, jamiyat va makon bilan ziddiyatga kirishi, xotira va qadriyatlar orqali o'zini qayta tiklashga intilishi tarzida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan u istiqloq davri o'zbek

she'riyatidagi lirik "men" tabiatini, uning ruhiy murakkabligini va davr poetik tafakkuridagi o'zgarishlarni ochish uchun muhim metodologik kalit vazifasini bajaradi.

Psixologik nuqtayi nazardan u insonning "men kimman?", "hayotdagi o'rim nima?", "qanday qadriyatlarga tayanaman?" kabi savollar qarshisida ichki iztirobga tushishi bilan bog'liq bo'lsa, sotsiologik yondashuvlarda bu hodisa shaxsning jamiyatdagi o'ri, guruhga mansubligi, ijtimoiy tan olinishi va madaniy muhit bilan munosabati orqali talqin qilinadi. Falsafiy tafakkurda esa identitet inqirozi inson mavjudligining ma'nosi, o'zlik va boshqalik, erkinlik va mas'uliyat, xotira va vaqt, mohiyat va o'zgarish o'rtasidagi murakkab munosabatlar bilan bog'lanadi.

Mazkur muammo keyinchalik madaniyatshunoslik, tilshunoslik, siyosatshunoslik va adabiyotshunoslik sohalariga ham ko'chdi. Chunki identitet inqirozi faqat individual ruhiyatga xos hodisa emas, balki butun jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi, til muhiti, ijtimoiy munosabatlari va estetik tafakkurida ham aks etadi. Mustamlakachilikdan keyingi jamiyatlarda, keskin ijtimoiy o'zgarishlarni boshdan kechirgan xalqlarda, shuningdek, globallashtirish bosimi ostida yashayotgan madaniyatlarda identitet masalasi yanada dolzarb tus oladi. Bunday sharoitda shaxs o'zini bir vaqtning o'zida milliy tarix, zamonaviy hayot, global axborot maydoni, diniy-madaniy qadriyatlar, shahar madaniyati va shaxsiy ruhiy izlanishlar kesishmasida anglashga majbur bo'ladi. Bu esa o'zlik haqidagi tasavvurning barqarorligini susaytirib, "men"ning ichki bo'linishi va qayta shakllanishiga sabab bo'ladi. Adabiyot, ayniqsa, she'riyat bunday ruhiy-madaniy jarayonlarni eng nozik va teran shaklda aks ettiruvchi estetik maydon hisoblanadi. Chunki she'riyatda shaxsning ichki dunyosi, ruhiy iztirobi, yolg'izlik hissi, o'zini anglashga bo'lgan ehtiyoji va jamiyat bilan ziddiyati bevosita lirik kechinma orqali ifodalanadi. Identitet inqirozi adabiy matnga ko'chganida u nazariy tushuncha sifatida emas, balki lirik "men"ning parokandaligi, ichki dialogi, savol ohangi, xotira bilan murakkab munosabati, begonalashuv, yo'l, uy, shahar, ko'zgu, soya, sukut, tun kabi obrazlar orqali badiiy shakl kasb etadi. Shu sababli adabiyotshunoslikda identitet inqirozini o'rganish lirik qahramonning ruhiy holatini tahlil qilish bilangina cheklanmaydi; u davming estetik tafakkuri, madaniy ongidagi o'zgarishlar va shaxs haqidagi tasavvurlarning yangilanishini ham ochishga xizmat qiladi. Istiqloq davri o'zbek she'riyati ham aynan shunday murakkab tarixiy-madaniy sharoitda shakllandi. Mustaqillik milliy o'zlikni qayta anglash, tarixiy xotirani tiklash, Vatan, til, din, madaniyat va erkinlik tushunchalarini yangicha idrok etish imkonini yaratdi. Biroq bu jarayon faqat ijobiy ruhdagi uyg'onish va o'zlikni tiklash bilan cheklanib qolmadi.

Xulosa. Ijtimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlar, qadriyatlar tizimining yangilanishi, eski mafkuraviy mezonlarning yemirilishi, yangi hayot tarzining shakllanishi, urban muhitning kengayishi va global madaniy ta'sirlar shaxsning ichki dunyosida ham murakkab savollarni yuzaga chiqardi. Natijada istiqloq davri she'riyatida lirik qahramon ko'pincha barqaror va qat'iy "men" egasi sifatida emas, balki o'zini izlayotgan, uyg'otgan, qayta angelayotgan va yangi ruhiy tayanchlar topishga urinayotgan subyekt sifatida namoyon bo'la boshladi. Mazkur jarayonda "yo'qolgan men" fenomeni alohida ahamiyat kasb etadi. "Yo'qolgan men" deganda shaxsning butunlay yo'qolishi emas, balki uning avvalgi o'zlik mezonlari bilan hozirgi hayot tajribasi o'rtasidagi uzilish, ichki yaxlitlikning buzilishi va yangi identitetni izlash jarayoni tushuniladi. Bunday lirik qahramon o'zini jamiyatdagi tayyor rollar orqali to'liq anglay olmaydi; u o'zining ichki ehtiyoji, xotirasi, qadriyatlari va tashqi muhit o'rtasidagi nomuvofiqlikni his qiladi. Shu bois zamonaviy she'riyatda "men" ko'pincha savolga aylangan, o'zidan uzoqlashgan, o'zini yo'qotgan, biroq ayni paytda o'zini qayta topishga intilgan poetik subyekt sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Советская Россия, 1979. – С. 5–35.
2. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York; London: Routledge, 1990. – 172 p.
3. Castells M. The Power of Identity. – 2nd ed. – Malden; Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
4. Dubar C. La socialisation: Construction des identités sociales et professionnelles. – Paris: Armand Colin, 2015. – 256 p.
5. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton & Company, 1968.
6. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. – Cambridge: Polity Press, 1991.

7. Рикёр П. Я-сам как другой / пер. с фр. – М.: Издательство гуманитарной литературы, 2008. – С. 140–168.

8. Hall S. Cultural Identity and Diaspora // Identity: Community, Culture, Difference / ed. by J. Rutherford. – London: Lawrence & Wishart, 1990. – P. 222–237.
9. Barthes R. The Death of the Author // Image, Music, Text / trans. by S. Heath. – New York: Hill and Wang, 1977. – P. 142–148.
10. Foucault M. What Is an Author? // Language, Counter-Memory, Practice / ed. by D. F. Bouchard. – Ithaca: Cornell University Press, 1977. – P. 113–138.